

TA'LIM-TARBIYADA AMIR TEMUR O'GITLARIDAN FOYDALANISH

(91-2217285) Hamid Yaratov,
Qashqadaryo VTXQTMOI Pedagogika, psixologiya
va ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi

Sohibqiron Amur Temurning dunyo taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. O'sha davrda Yevropa va Osiyoda mo'g'ul-tatarlarning, ayniqsa, Chingizxonning istilochilik urushlari, uning oqibatlari qariyb 300 yil davom etadi. Bunday qullikdan ozod etish, mustaqil davlatlar sifatida rivoj topish va madaniyatning taraqqiy etishida Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli Sohibqiron Amir Temurning haqiqiy faoliyati xalqimizga to'la ayon bo'ldi. 1996-yilda uning tavalludiga 660 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro anjumanlar va yurtimizdagi an'analar uning nomini ochiqcha ilk bor tarannum etishga muvaffaq bo'ldi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurga bag'ishlab katta xiyobonlar qayta bezatildi va uning haykallari o'rnatildi. Bu milliy qadriyatlarni qay tarzda tiklash va milliy madaniyatimizni yuksak cho'qqilar kabi yanada baland ko'tarishning buyuk namunasi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada shunday degan edi: “Bugun bunyod etilgan bobokalonimiz haykalida teran ramz bor — go'yoki jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz qo'lini oldinga cho'zib jahon xalqlariga omonlik sog'inmoqda, ”Kuch – adolatdadir” demoqda”.

Amur Temur davrida Turkiston zamini obod bo'lib, yanada rivojlandi hamda ilm-fan va madaniyati rivojlangan davlatlar qatoridan joy oldi. Amur Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, qishloqlar, karvonsaroylarni Shahrisabz, Buxoro, Samarqand shaharlarida qad ko'targan imoratlar, “Temur va Temuriylar davlati”, ”Temuriy madaniyati”, “Ulug'bek va Samarqand” kabi tushunchalarni dunyoga kelishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'liqdir.

Sohibqiron Amir Temur odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'g'itlar, pand-nasihatlarini, shuningdek Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirishimiz lozim.

Tarixiy asarlarda yozilishicha, Sohibqiron Amir Temurning eng xarakterli xususiyatlari davlat, mamlakat va fuqaroning g'amxo'ri bo'lgan. Jahongirlik qoidasi esa haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat deb e'tirof etgan.

Sohibqiron Amir Temur har vaqt: “Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi”, – degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlari bunga amal qilganlar.

Sohibqiron Amir Temur haqidagi tarixiy asarlarda bobomiz amal qilgan quyidagi sifatlar keltirib o'tiladi:

- Sifatlarning birinchisi – beg'arazlik;
- Islomga qat'iy rioya qilish;
- Har bir mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirib, to'g'ri va odilona hal etish;
- Rahm-shafqatli bo'lish, nohaq ozor yetkazmaslik;
- Barcha so'zlarda haqiqatga amal qilish;
- Va'daga vafo;
- Insofli bo'lish.

Bu o'g'itlar juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goh g'amgin umrdagi hayot saboqlari orqali vujudga kelgan.

Sohibqiron Amir Temurning bu o'g'itlari orqali davlatni boshqarish va idora etish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik, mehr-shafqat, axloq-odobni tarbiyalashimiz mumkin. Sohibqiron Amir Temurning axloq va odob haqidagi qarashlarini quyidagicha o'rganamiz:

- adolat va adolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'stlik va dushmanlik;
- botirlik va qo'rqqoqlik;
- so'z va shirinsuhanlik.

So'z haqida shunday deydi: “Shirin so'z aytib g'animni iymonga kiritgin. Bir kalima yomon so'z qilichni qinidan chiqarar”. Bu o'g'irlarning barchasi Sohibqironning o'z tajribasida sinalgan.

Amir Temur “Axloqi husniya, ya'ni yaxshi xulqlar egasi” bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'ylab bir kesgan. Amir Temur singari jahon madaniyatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan bobokalonlarimizning axloq va go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kunning talabi bilan yozilgandek tuyiladi, go'yo.

“O'g'illarim!, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tadbir eting. Millatning dardiga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz bo'lsin. Men kabi uzun saltanat surmoq istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir da'fa chekkandan so'ngra uni ustalikka qo'llangiz. Orangizga nifoq urug'lari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi xodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq urug'larini sochmakka, bundan foydalanmakka harakat qiladurlar. Bularga sodiq qolsangiz, tosh boshingizga tushmas”.

Bundan tashqari sahibqironning do'stlik va dushmanlik haqidagi fikrlaridan ham keng foydalanishimiz mumkin. Masalan: “Do'stlik – sinovda chiniqadi”, “Do'stu-dushman bilan murosai-madora qildim”, “Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi”, “Farzandlar, qarindoshlar, oshna-

og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu-ne'mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim", "Do'stu-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, ularga shunday muomala qildimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi".

Shunday qilib, Sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining har biri mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". – T.: "O'zbekiston", 2015-yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008-yil.
3. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". – T.: "O'zbekiston", 1994-yil.